

YAN AMOS KOMENSKIY VA UNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Soatova Rayxona Sadriiddin qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika va san'at fakulteti
Pedagogika yo'nalishi talabasi
rayhonasatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Komenskiyning ta'lim sohasidagi faoliyati, uning pedagogik, didaktik qarashlari yoritilgan. Shuningdek, buyuk pedagog olimning hayot yo'li, uning bugungi kun avlodlariga qoldirgan asarlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Komenskiy, “Buyuk didaktika” asari, pedagogika, gumanizm, ta'lim tizimi.

Abstract: This article describes Comensky's activities in the field of education, his pedagogical and didactic views. Also, thoughts about the life path of the great pedagogue scientist and his works left to the generations of today are expressed.

Key words: Comenius, "The Great Didactic", pedagogy, humanism, educational system.

Аннотация: В данной статье описывается деятельность Коменского в области образования, его педагогические и дидактические взгляды. Также высказываются мысли о жизненном пути великого ученого-педагога и его трудах, оставшихся нынешним поколениям.

Ключевые слова: Коменский, «Великая дидактика», педагогика, гуманизм, система образования.

Buyuk chex olimi Yan Amos Komenskiy 1592-yil 28-mart kuni Chex diniy jamoasida oddiy tegirmonchi oilasida tug'ilgan va shu jamoadagi maktabda tahsil olgan. Y.A.Komenskiy ota-onasidan erta ayriladi, jamoa a'zolarining ko'magi bilan universitetga kiradi. O'sha yillarda katolik chekovi ta'qibi natijasida Polshaning Leshko shahriga kelib, gimnaziya tashkil qiladi. 1631-1632-yillarda “Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi”, “Buyuk didaktika”, “Onalar maktabi” kabi kitob va qo'llanmalar yaratadi. Yillar davomida o'z ustida ishlab, pedagogika faniga ulkan hissa qo'shadi. 1650-yil Komenskiy Vengriyaga keladi va pedagogika nazariyasi tadqiqotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan “Yaxshi tashkil etilgan maktab qounlari”, “Pansofiya maktabi”, “Hislar vositasida idrok qilinadigan narsalar tasviri” nomli asarlarni yozadi.

Komensiy Vengriyada bo'lgan yillarda, u metodik va umumiy pedagogik jihatdan yana 10 ga yaqin original asar yaratdi. U hatto o'z darsligini qayta tartibga solib, uni spektakl shaklida tuzdi, shogirdlar zavq bilan o'ynashdi. Bu orada Lesno jamoasining ahvoli ancha yomonlashdi. Jamiyat qulashining oldini olish uchun Vengriyadan

Komenskiy chaqirilgan. Biroq, Lesno 1656 yilda o‘zini harbiy harakatlar markazida topdi. “Chexiya birodarlar” jamoasi parchalanib ketdi va Komenskiy ham boshqalar kabi qochishga majbur bo‘ldi. Uning uyi yonib ketdi va u bilan birga kitoblar va qo‘lyozmalarning aksariyati ham kulga aylandi. Komenskiy sobiq badavlat homiysi o‘g‘li bilan Amsterdamda boshpana topdi. 60-yillarning boshidan ber Komenskiy ko‘p vaqt va kuchini tinchlik va xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik muammolarini, Chexiya Respublikasini ozod qilish harakatlarini rivojlantirishga bag‘ishladi. Ammo shu yillar davomida u bir qancha asarlar yozdi, ba’zilari uning hayoti davomida nashr etilgan.¹

Komenskiy boshqalardan farqli o‘laroq tug‘ilganidan boshlab bola egallagan qobiliyatini Xudoning tuhfasini hisobladi va ayni paytda, bu qobiliyat faqat tarbiya jarayonida rivojlanishini uqtirdi. Komenskiy insonning rivojlanishida tarbiyaning o‘rni benihoya ekanligiga ishonadi va tarbiya tufayligina har qanday bolani yuksak axloqli ma’lumotli qilib yetishtirish mumkin degan fikrni bildirdi, bolani yoshlik chog‘idan jismonan sog‘lom, ma’naviyatli qilib tarbiyalashni talab qildi.²

Yan Amos Komenskiy har bir inson, shu jumladan, ayollar ham ta’lim olishi kerakligini ta’kidlab o‘tadi. Buyuk olim bolalarning ta’lim olish yoshini quyidagi bosqichlarga bo‘lib chiqadi:

- Ona maktabi (tug‘ilganidan to 6 yoshgacha);
- Xalq maktabi (6-12 yosh);
- Gimnaziya (12-18 yosh);
- Akademiya (18-24 yosh);

Komenskiy pedagogikasining mohiyati o‘qitishni bola yoshi, ruhiy holati hamda bilim darajasining uyg‘un holda tashkil etishdan iboratdir. Olimning bu kabi qarashlari uning “Buyuk didaktika” nomli asarida atroflicha yoritilgan bo‘lib, onglilik, izchillilik kabi didaktik tamoyillar ahamiyati nazariy jihatdan asoslanib berilgan.

Jahon ta’lim tizimiga nazar soladigan bo‘lsak, Yan Amos Komenskiy tarixda birinchi bo‘lib ta’limning sinf-dars tizimini ishlab chiqadi, ta’lim beriladigan vaqtning davomiyligini, o‘quvchilarning soni va yoshini belgilab beradi. U darsni tizimini rejalashtirish, ta’lim beriladigan vaqtni o‘quv yili, davomiyligi, chorak hamda o‘qish kunlariga ajratish usullarini ko‘rsatdi. O‘quv soatlari, ta’tillarning muddatini belgilab berdi.

¹ K. Sh. Shaydullayeva. (2021). Y.A. KOMENSKIY PEDAGOGIK QARASHLARI XUSUSIDA MULOHAZALAR. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”, Scientific Journal. Volume 1 Issue 9, 320-327-betlar.

² A. I. Axmedov. (2022). YAN AMOS KOMENSKIYNING PEDAGOGIK G‘OYALARI. “SCIENTIFIC PROGRESS” Scientific Journal. Volume 3 Issue 4, 562-566-betlar.

Komenskiyning fikricha, bolalarni maktabga har yili bir marta qabul qilish lozim. O‘qishga qabul qilinganlar sinflarga taqsimlanib chiqilishi kerak. Maktabda sinflar soni qancha bo‘lsa, sinfxonalari ham shuncha bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har kuni to‘rt soat, gimnaziya o‘quvchilari olti soat o‘qishi kerak. Har bir darsda ma’lum vazifani bajarish kerak. Muallim biror narsani tushuntirayotganda hamma bolalar diqqat bilan tinglasinlar.³

Tarbiyaning tabiat bilan uyg‘un, moslik tamoyilini ilk marotaba Yan Amos Komenskiy ham nazariy, ham amaliy jihatdan ishlab chiqadi. U inson tabiatining sifatida uning eng asosiy umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunadi, deb hisoblagan. Komenskiyning fikriga ko‘ra, tabiatning bu qonuniyatlari o‘simliklar va butun hayvonot olamiga ham, shu bilan birga insonga nisbatan ham o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi.

Yan Amos Komenskiy bolalarni 6 yoshgacha onalar maktabida tarbiyalashni taklif etadi. Bolalar bolalik davrida o‘z jamoalar va qishloqlarda ona tilida olti yillik boshlang‘ich maktab bo‘lishi lozim. O‘smir yoshdagilar uchun shaharlarda lotin maktabi yoki gimnaziya bo‘lishi kerak. Bundan tashqari u hma uchun umumiy maktab bo‘lishi lozim degan fikrni yoqlab chiqadi. Komenskiyning fikriga ko‘ra, bolalar onalar maktabida bolalar boshlang‘ich ma’lumotlarni, shu jumladan, suv, havo, yer, olov, yomg‘ir, qor, temir, o‘simliklar, hayvonlar va hokazolar nima ekanligini bilishlari kerak. Bolalarni kichkinaligidan mehnatga, o‘rgatish kerakligini aytadi. Bolalarni mehnatsevarlikka, ozodalikka, kattalarni hurmat qilishga, adolatlilikka, insonparvarlikka hali maktab yoshiga yetmasdanoq o‘rgatish lozim. Uning fikricha, maktablar va gimnaziya u hma uchun umumiy maktab bo‘lishi lozim degan fikrni yoqlab chiqadi. Komenskiyning fikriga ko‘ra, bolalar onalar maktabida bolalar boshlang‘ich ma’lumotlarni, shu jumladan, suv, havo, yer, olov, yomg‘ir, qor, temir, o‘simliklar, hayvonlar va hokazolar nima ekanligini bilishlari kerak. Bolalarni kichkinaligidan mehnatga, o‘rgatish kerakligini aytadi. Bolalarni mehnatsevarlikka, ozodalikka, kattalarni hurmat qilishga, adolatlilikka, insonparvarlikka hali maktab yoshiga yetmasdanoq o‘rgatish lozim. Uning fikricha, maktablar va gimnaziya u hma uchun umumiy maktab bo‘lishi lozim degan fikrni yoqlab chiqadi.

Yan Amos Komenskiyning fikricha, barcha bolalar bilimlarni idrok qilishga qodir, “barchani hamma narsaga o‘rgatish” zarurligini, ta’limning umumiy bo‘lishi kerakligini aytadi. Bundan tashqari, u olim bo‘lishni xohlagan 18 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar uchun akademiyalarni har bir davlatda ochish kerakligini aytadi. Komenskiy barcha bosqichlar uchun (akademiya tashqari) ta’limning mazmunini ishlab chiqadi. U har bir fanning o‘qitilishini “eng oddiy elementlardan “boshlab, bolalar bilimi rivojini hisobga olgan holda takomillashtirib borishni tavsiya etadi.⁴

³ B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

⁴ A. I. Axmedov. (2022). YAN AMOS KOMENSKIYNING PEDAGOGIK G‘OYALARI. “SCIENTIFIC PROGRESS” Scientific Journal. Volume 3 Issue 4, 562-566-betlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yan Amos Komenskiyning pedagogika sohasiga qo‘shgan hissasi benihoya qadrli va beqiyosdir. Uning asarlari butun dunyo bo‘ylab juda keng qo‘llanilib, ommabopligini yo‘qotgani yo‘q. Mana necha asrlardan beri Komenskiyning hayot yo‘li va ilmiy-ijodiy sohasiga bo‘lgan qiziqish kamaymadi, aksincha har bir yangi avlod pedagoglari uning hayot yo‘li va asarlaridan dono fikrlar, ajoyib maslahatlar topadi. Mana ko‘p asrlardan beri olimlar uning asarlarini o‘rganib, undagi g‘oyalari qanchalik to‘g‘ri ekanligini tan olib, tarbiyani hayot tarzini yaxshilash, umuminsoniy uyg‘unlikka erishish uchun safarbar etishmoqchi bo‘lishyapti. Yan Amos Komenskiyning pedagogik g‘oyalari hamon barhayot yashamoqda, bugungi kun olim-u ustozlari uning ishlarini davom ettirib, pedagogika sohaning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
2. Komenskiy Ya.A. "Buyuk didaktika". - Sevimli. ped. Op. M., Uchpediz, 1955 yil
3. Zunnunov, M. Xayrullayev, B. To‘xliyev, Sh. Qurbonov, X. Masudov, M. Qurbonov PEDAGOGIKA TARIXI 2004 yil.
4. K. Sh. Shaydullayeva. (2021). Y.A. KOMENSKIY PEDAGOGIK QARASHLARI XUSUSIDA MULOHAZALAR. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”, Scientific Journal. Volume 1 Issue 9, 320-327-betlar.
5. A. I. Axmedov. (2022). YAN AMOS KOMENSKIYNING PEDAGOGIK G‘OYALARI. “SCIENTIFIC PROGRESS” Scientific Journal. Volume 3 Issue 4, 562-566-betlar.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yan_Amos_Komenskiy
7. <https://jdpu.uz/zamonaviy-pedagogikada-y-a-komenskiyning-pedagogik-goyalari/>